
“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Qo’shtepa tumanida “Ustozlar bog’i” tashkil etildi

Qo’shtepa tumanida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida joriy yilgi kuzgi daraxt ekish mavsumi keng ko’lamda tashkil etilmoqda. Mahalla va maskanlar, muassasalarda ezgu aksiya qizg’in davom etmoqda.

Jumladan, tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi tashabbusi bilan 23-maktabda loyiha doirasida ko’rgazmali seminar bo’lib o’tdi.

Tadbirda maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi mutasaddilari, tumandagi maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlari hamda ustoz-murabbiylar ishtirok etdi.

Seminar davomida ishtirokchilar tomonidan maktab hududiga 200 tupdan ziyod mevali va manzarali daraxt hamda gul ko’chatlari ekilib, “Ustozlar bog’i” tashkil etildi.

Tuman maskanlarida keng ko’lamli ko’chat ekish aksiyalari ko’tarinkilik bilan davom etmoqda.





2024-11-20 09:37:23